

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI**

**MUQIMIY NOMIDAGI
QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI

**5141600-Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish
ta'lim yo'nalishi IV "E" guruh talabasi**

Xaydarova Sayyoraning

**"4-sinf o'qish darslarida tilning lug'at tarkibini
o'rgatish" mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY
ISHI**

Ilmiy rahbar- o'qituvchi To'raxo'jaeva A.

Qo'qon -2011

Pedagogika fakulteti 5141600-Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi IV "E" guruh talabasi Xaydarova Sayyoraning "4-sinf o'qish darslarida tilning lug'at tarkibini o'rgatish" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

X U L O S A S I

Boshlang'ich sinfda o'qish darslarining maqsadi o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, so'z boyligini oshirish bilan bir vaqtda tilning lug'at tarkibiga oid nazariy tushunchalarni ham o'rgatib borishdan iborat.

BMIda 4-sinf o'qish darslarida lug'at ustida ishlash, tilning lug'at tarkibini o'rgatishda kasb-hunarga oid so'zlar, dealektizmlar, professionalizmlar, eskirgan qatlam, yangi paydo bo'lgan so'zlar hamda baynalminal so'zlar kabi tushunchalarni o'rgatish usullari darslikdagi matnlar asosida atroflicha tahlil qilib berilgan.

Ish reja bo'yicha, mantiqiy fikrlar asosida, izchil bayon qilingan. Ish mazmunan chuqur yoritilgan, yozilish uslubi sodda va tushunarli.

Talaba ishning amaliy tomonlarini yoritishda Qo'qon shahar XTBga qarashli 17-maktabda olib borgan ped amaliyot davridagi kuzatishlari va tajribalariga asosan xulosalar chiqargan.

Ishning ikkinchi bob uchinchi rejasida berilgan eskirgan so'zlar va ular haqida ma'lumot berish masalasi ko'proq nazariy jihatdan yoritilgan bo'lib, metodik tomonlariga ozroq e'tibor qaratilgan.

Ishda belgilab olingan maqsad va muammolar o'z echimini topganligini inobatga olib, uni himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

A.To'raxo'jaeva.

08.04.2011

Pedagogika fakulteti 5141600-Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi IV "E" guruh talabasi Xaydarova Sayyoraning "4-sinf o'qish darslarida tilning lug'at tarkibini o'rgatish" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Bitiruv malakaviy ish mavzusi boshlang'ich sinf o'qish darslarining samaradorligini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash kabi masalalarga bag'ishlangan dolzarb mavzulardan biridir. Ishda belgilab olingan muammo, maqsad va vazifalar ham nazariy, ham amaliy jihatdan atroflicha o'rganib chiqilgan. Ishning birinchi bobida o'qish darsining turlari hamda maqsad va vazifalari, o'quvchilarga tilning lug'at tarkibini o'rgatishda lug'at ustida ishlash yo'llari, 4-sinf o'qish darslari va darsligining umumiy tavsifi kabi masalalar yoritilgan.

Ishning ikkinchi bobida esa kasb-hunarga oid so'zlar va ularni o'rgatish, shevaga xos so'zlar va ular ustida ishlash, eskirgan so'zlar va ular haqida ma'lumot berish, o'qish darslarida ruscha - baynalminal so'zlarni o'rgatish yo'llari kabi amaliy masalalarga e'tibor qaratilgan.

Talaba mavzuni yoritishda ko'plab ilmiy – metodik adabiyotlardan va qo'llanmalardan foydalangan. Ishning amaliy tomonlarini tahlil qilishda pedamaliyot davomida olib borgan tajriba va kuzatishlariga asosan xulosalar chiqargan.

Ish sodda tilda, mazmunli va tushunarli tarzda yozilgan. Fikrlar reja asosida izchil bayon qilingan.

Ishda bir soatlik dars uchun alohida dars ishlanmasi ilova qilinganda yanada yaxshiroq bulardi.

Ish unga qo'yilgan talablarga javob beradi, uni himoyaga tavsiya etish mumkin.

Taqrizchi:

O.Bozorov fil.fan.nomzodi

R E J A:

Ishning umumiy tavsifi.

KIRISH.

I. BOB. O'qish darslari va lug'at ustida ishlash.

1. O'qish darsining turlari hamda maqsad va vazifalari.
2. O'quvchilarga tilning lug'at tarkibini o'rgatishda lug'at ustida ishlash yo'llari.
3. 4-sinf o'qish darslari va darsligining umumiy tavsifi.

II. BOB. 4-sinfda tilning lug'at tarkibi yuzasidan bilimlar berish.

1. Kasb-hunarga oid so'zlar va ularni o'rgatish.
2. Shevaga xos so'zlar va ular ustida ishlash.
3. Eskirgan so'zlar va ular haqida ma'lumot berish.
4. O'qish darslarida ruscha - baynalminal so'zlarni o'rgatish yo'llari.

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

Ishning umumiy tavsifi.

I. Mavzuning dolzarbligi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning “Farzandlarimiz bizdan ko’ra kuchli, bilimli, dono va, albatta, baxtli bo’lishlari shart!” degan so’zlariga asosan mustaqillik yillarida ta’limni tubdan isloh qilish borasida benihoya ko’lamli ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda milliy va umuminsoniy ruhda tarbiya topgan, yuksak ma’naviyatga ega, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yo’nalishini modernizasiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo’lidagi keng qamrovli vazifalarni hal kilishga qodir bo’lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasi xalqimiz oldiga qo’ygan ulkan maqsadlarni amalga oshirishida muhim va asosiy vazifa hisoblanadi.

Komil insonni voyaga etkazishda boshlang’ich ta’lim shubhasiz mustahkam poydevor rolini o’taydi. Ma’lumki, boshlang’ich sinf o’quvchilariga ta’lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o’qish darslarida amalga oshiriladi. Ona tili va o’qish darslarida olib boriladigan barcha mashg’ulotlarning etakchi o’rni nutq o’stirish bo’lib, u savod o’rgatish, chiroyli yozish ko’nikmalarini shakllantirish va o’quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish kabi vazifalarni o’z ichiga oladi.

Xar bir insonning nutqi chiroyli, mukammal, talaffuzi aniq, ravon bo’lsa, fikrlash doirasi keng, idrok qilishi ham teran bo’ladi. Nutq orqali odamzod o’zining ichki hissiyotlarini ham bayon qiladi. Chiroyli so’zlashni, savodli, to’g’ri yozishni, o’z fikrini ravon va aniq bayon etishni bilmagan yoki etolmagan o’quvchi hech qaysi bilimlarni muvaffaqiyat bilan o’zlashtira olmaydi. Bu borada so’z va nutqning ma’no-mohiyatini teran idrok etgan buyuk qalam sohiblari so’zlash qobiliyati va go’zal nutq qudrati bemisil bir ne’mat ekanligini takror va takror ta’kidlaganlar.

O’quvchilar nutqini o’stirish, avvalo, ularning lug’atini boyitish bilan bog’liqdir. So’z boyligini oshirishda lug’at ustida ishlash katta amaliy ahamiyatga ega. O’rganilayotgan matn yuzasidan lug’at ishi o’tkazish

jarayonida o'quvchilar tilning lug'at tarkibiga xos bo'lgan eskirgan so'zlar, yangi paydo bo'lgan so'zlar, kasb-hunarga oid so'zlar, shevaga xos so'zlar, badiiy uslubga xos so'zlar bilan amaliy jihatdan tanishib boradilar. Tilimizda mavjud bo'lgan behisob so'zlarni yodda saqlab qolishda hamda ularni nutqda to'g'ri va o'rinli qo'llay olishda tilning lug'at tarkibini muayyan qatlamlar yoki guruhlariga ajratib o'rganish ya'ni eskirgan so'z, yangi paydo bo'lgan so'z, kasb-hunarga oid so'z, shevaga xos so'z kabi tushunchalar haqida ilk nazariy ma'lumotlar bilan tanishtirish juda muhim sanaladi. Ushbu BMIning dolzarbligi ham ana shu bilan belgilanadi.

II. Ishning maqsad va vazifalari.

Ushbu BMIda boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirish, so'z boyligini oshirish, faollashtirish, so'zning ma'no nozikligini his etish kabi masalalar 4-sinf o'qish darslarida tilning lug'at tarkibini o'rgatish, lug'at ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilar nutqini rivojlantirib borish asosida keng va atroflicha tahlil qilingan.

Bunda ishning asosiy maqsad va vazifalari deb quyidagilar belgilab olindi.

1. O'quvchilarga tilning lug'at tarkibini o'rgatishda lug'at ustida ishlash yo'llari.
2. Kasb-hunarga oid so'zlar va ularni o'rgatish.
3. Shevaga xos so'zlar va ular ustida ishlash.
4. Eskirgan so'zlar va ular haqida ma'lumot berish.
5. O'qish darslarida yangi paydo bo'lgan so'zlarni o'rgatish yo'llari.

III. Ishning amaliy ahamiyati.

Umumiy o'rta ta'limda ona tili, o'qish va adabiyot kabi fanlarning etakchi maqsadi nutq o'stirishdan iboratdir. Chunki bolalarda so'z zahirasi ko'p bo'lishi, so'z ma'nolarini yaxshi tushunish ularning savodxonligini oshirishda,

nutq madaniyatini yuksaltirishda, o'z fikrini aniq va ixcham, ta'sirchan qilib etkazishda muhim rol o'ynaydi. Ana shunday ma'suliyatli vazifani bajarishda ushbu BMIda tavsiya etilayotgan tilning lug'at tarkibini o'rganishning nazariy va amaliy asoslari, zamonaviy pedtexnologiyalarning yangicha usullari katta amaliy ahamiyatga ega.

IV. Ishning tuzilishi.

Ushbu BMI ishning umumiy tavsifi, kirish, ikki bob, ettita qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I. BOB. O'qish darslari va lug'at ustida ishlash.

O'qish darsining turlari hamda maqsad va vazifalari.

Birinchi sinfda savod o'rgatish davri tugaganidan keyin o'qish darslari boshlanadi va 2-4-sinflarda davom ettiriladi.

O'qish darslari o'quvchilar fikrini va nutqini o'stirish, ahloqiy tarbiyani amalga oshirish hamda o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi xususiyatlari bilan boshka o'quv predmetlari orasida aloxida o'rin tutadi.

O'qish darslari jarayonida o'quvchilarning o'qish malakalari takomillashib, to'g'ri, ongli va ifodali o'qish, badiiy asar g'oyasini tushunish qobiliyatlari usib boradi.

«O'qish kitobi»dagi turli janrlarga xos bo'lgan badiiy asarlarni o'qish va ular ustida ishlash orqali o'quvchilarning borliq, voqelik xaqidagi tasavvur-tushunchalari kengayadi.

Birinchi sinfda o'quvchilar ongli, to'g'ri va bir me'yorda bug'inlab o'qish malakasini egallaydilar. Ayrim nutq tovushlariping talaffuzidagi qiyinchiliklar asta-sekin bartaraf etiladi. O'quvchilar o'qigan matnlariniig mazmunipi o'qituvchining yordamchi savollari aso-sida hamda kichik hajmdagi matn mazmunini unga ishlangan rasmdan foydalanib so'zlab berishga o'rganib boradilar.

Ikkinchi sinf o'quvchilarida so'zni butunicha o'qish malakalari shakllanadi va ongli, to'g'ri, ifodali o'qishga intilish yaqqol seziladi. O'qish tezligi ortadi. Ayrim matnlarp ovozi chiqarmay mustaqil o'qiy boshlaydilar. O'qituvchi rahbarligida o'qilgan matndagi asosiy fikrni aniqlaydilar, undagi ayrim voqea-xodisalarni so'z bilan tasvirlashga o'rganadilar. O'qish va matnni savollar asosida hikoyalash paytida o'quvchilar nutqining to'g'ri va aniq bo'lishiga, nutqda so'zlardan o'rinli foydalanishlariga e'tibor beriladi.

Uchinchi sinfda o'quvchilar so'zlarni butunicha o'qish malakalarini to'la egallab, ongli va ifodali o'qishga ko'proq e'tibor beradilar.

O'qilgan matn mazmunini muloxaza qilish, vokealar yo'nalishini aniqlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bu sinfda ham o'qilgan asarning badiiy-tasviriy xususiyatlari ustida ishlash davom ettiriladi.

Uchinchi sinf o'quvchilariga o'zaro fikr olishuv jarayonida xalq maqollari va obrazli iboralardan o'rinli foydalaniish, adabiy talaffuz me'yorlariga rioya qilish o'rgatiladi.

To'rtinchi sinfda o'quvchilar matndagi so'zlarni butunicha, ma'nosiga tushunib to'g'ri o'qish malakalarini to'la egallaydilar. O'qiganlari mazmunini qayta hikoyalash, matnni kislmlarga bo'lish va sodda reja tuzish vazifalarini mustaqil bajara oladilar.

O'qish va gapirish jarayonida o'quvchilarning adabiy talaffuz me'yorlarigaa rioya qilishlari talab qilinadi.

Boshlag'rich sinf o'qituvchilari yuqorida belgilangan talablar asosida o'z ishlari natijasini nazorat qilib borishlari keraq

O'qish darslarida darsning asosiy qismini o'quvchilarning o'qishiga ajratish lozim. O'quvchilar turli xildagi aniq topshiriqlar asosida bir necha marta o'qitiladi va o'qish mas'uliyatlari orttiriladi. Bunday topshiriqdar dastlab sodda va oson bo'lib, asta-sekin murakkablashtirib boriladi.

Masalan, 2-sinf o'quvchilariga matndan bir-ikkita gapni mustaqil o'qish va belgilangan savolga javob qaytarish topshirig'i berilishi mumkin. 3-4- sinflar-da esa matnni o'qib, gapirishga tayyorlanish, undagi asosiy mazmunpi aniqlash singari topshiriqlar beriladi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarni mustaqil o'qish va o'qiganlari yuzasidan muloxaza yuritishga undaydi.

O'qish darslari davomida o'quvchilar lug'atini boyitish va nutq ustirish masalasiga alohida e'tibor beriladi. Buning uchun darslikdagi va boshqa rasmlar asosida suhbat, kuzatganlari yuzasidan og'zaki hikoya tuzish, she'r, topishmoq va maqollarni yoddan aytirish singari turli ish usullaridan foydalaniish mumkin.

Umuman, o'qituvchi aar bir darsning muhim vazifalarini oldindan belgilab olsa, uni maqsadga muvofiq. tashkil ztadi. Dars va uning turlarini belgilashda metodist olimlar darsning turli xil belgilariga, darsda qo'llaniladigan

ta'lim metodlariga, darsda o'quvchilar faoliyatini uyushtirish va darsning didaktik maksadlariga asoslanadilar. SHuningdek, har qaysi muallif o'z mutaxassisligi va umumiy holatdan kelib chiqib, dars turlarini belgilashga haarakat qiladi.

M.Maxmutov darsning asosiy didaktik maqsadiga ko'ra uni uch guruhga ajratgan: 1) yangi materialni o'rganish darslari; 2) bilim, malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish darslari; 3) nazorat darslar.

Yangi materialni o'rganish darsi — darsning asosiy turi bo'lib, yangi tushunchalar, mustaqil izlanish malakalarini o'zlashtirish kabi qator didaktik masalalarni hal qiladi, ya'ni birinchi tur dars o'quv jarayonining barcha bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Ikkinchi tur darsning asosiy mazmuni o'quvchilar bilimini, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishdan iborat. Bu sistemalashtirish va umumlashtirilgan fikrlarni takrorlash va mustahkamlash, uni amalda qo'llash kabi metodik masalalarni hal qiladi.

Darsning uchinchi turini o'quvchilar faoliyati natijalarini: tushunchalar sistemasini o'zlashtirganlik darajasini, esga tushirish va ijodiy o'qish — bilim, ko'nikma hamda malakalarining shakllanganlik darajasini baxolashga xizmat qiladi¹.

K.Qosimovaning boshlang'ich ta'lim metodikasi fakulteti talabalari uchun muljallangan darsligida xar xil janrdagi, ya'ni hikoya, ertak, masal, she'r va ilmiy-ommabop maqolalarni o'qishning o'ziga xos xususiyatlari bayon qilingan². O'kishdan umumlashtiruvchi dars tafsiloti berilgan.

T.Ashrapova va M.Odilovalarning maktab, pedagogika bilim yurti o'quvchilari uchun tuzgan darsligida³ ham har xil janrdagi asarlarni o'qish haqida fikr yuritilgan. Lekin mazkur qo'llanmalarda o'qish darsi turlari haqida

to'laqonli fikrlar etishmaydi. O'qish darslarining o'ziga xos xususiyatlari, maqsad va vazifalari uning turini belgilashda quyidagilarni hisobga olishni taqozo etadi:

¹.Maxmutov M. Maktabda problemali ta'limni tashkil etish. Toshkent, 1981.

².Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 1985.

³.Ashrapova T., Odilova M. Ona tili metodikasi. Toshkent, 1984.

1. Boshlang'ich sinf «O'qish kitobi» darsliklari bir necha bo'limlarni o'z ichiga oladi. Har bir bo'limni o'qish-o'rganish uchun dasturda bir necha soat dars ajratiladi. Har bir bo'limning birinchi darsi bilan shu bo'lim uchun ajratilgan oxirgi dars bir-biridan mutlaqo farq qiladi. SHu sababli savol va topshiriqlar asosida tashkil etiladigan yakuniy — umumlashtiruvchi darslarni farqlash o'rinlidir.

2.«O'qish kitobi» darsliklarida har xil janrdagi asarlar: she'r, xikoya, ertak, masal va ilmiy-ommabop maqolalar o'rganiladi. O'rganiladigan materialning janr xususiyatiga qarab ham dars turlarini belgilash zarur. CHunki ertak o'qib-o'rganiladigan dars bilan hikoya o'qiladigan darsni yoki she'riy asarni o'qish bilan ilmiy-ommabop maqolani o'qib-o'rganishni bir xil deb qarashn yaramaydi.

3. Boshlang'ich sinf o'qish darslarining har birida o'quvchilar, albatta, qandaydir yangi bilimga ega bo'ladilar. YA'ni ilgari bilmagan biror voqea-hodisa haqida tushuncha hosil qiladilar. SHuningdek, o'quvchilarnipg oldingi darslarda o'rgangan bilimlarini mustahkamlash, sinab ko'rish ishlari xam bajariladi. SHunga ko'ra, o'qish darslarini yangi bilim berish darsi, o'quvchilar bilimini mustahkamlash darsi yoki sinash darsi, deb ajratish yaramaydi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarining mazmuni, maqsadi va tuzilishiga ko'ra aralash tipli dars deyish maqsadga muvofikdir. Demak, dars turlari haqidagi mavjud fikrlarni boshlang'ich sinf o'qish darslariga o'zgarishlarsiz tatbiq etib bo'lmaydi. YUqoridagi fikrlarga asoslanib o'qish darsni quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1) kirish darslari; 2) hikoya o'qish darslari; 3) she'r o'qish darslari; 4) ertak o'qish darslari; 5) masal o'qish darslari; 6) ilmiy-ommabop maqola o'qish darslari; 7) umumlashtiruvchi darslar.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shu-ning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavur qilib bo'lmaydi.

O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlash-tirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standarti (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, awalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi.

Shu maqsadda „O'qish kitobi" darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlool va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

O'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matn-lar yuzasidan olib boriladi.

Boshlang'ich sinf „O'qish kitobi" darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqlool mafkurasi asosida to'g'ri shakllanti-rishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, o'qish darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga, o'quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar mhidida tarbiyalashga qaratiladi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'rganiladigan asarlar-ning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy is-tiqlool va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan.

O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqlool, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqlool, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularni uyg'otishdir.

Vatanparvarlik, atrofimizdagi olam, mehnatsevarlik kabi mavzular o'qish darsliklaridagi keng qamrovli mavzulardan bo'lib, 2-sinf „O'qish kitobi"dagi „Ona yurtim-oltin beshigim" bo' 1 imiga kiritilgan „ O'zbekistonim " (H. Imonberdiyev), „Istiqlol" (J. Jabborov), „ O'ilea " (E.Vohidov), „Yar tog'larga" (U.Nosir), 3-sinfda „Ona bitta, Vatan yagona" bo'limidagi „Vatan haqida she'r" (A.Avloniy), „O'zbekim" (E.Vohidov), „Vatan mo'tabardir" (X. Davron), „Bihb qo'yki, seni Vatan kutadi" (T.Malik), 4-sinfda „O'zbekiston - Vatanim manim" bo'limidagi „Serquyosh o'lka" (Z.Diyor), „Iqboli buyuksan" (A.Ori-pov), „Toshkentnoma" (M.Shayxzoda), „Xarita" (N.Norqobil) kabi asarlar misolida atroflicha tahlilga tortiladi.

Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malaka-larini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy-estetik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi.

Darsliklardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o'quvchilarning bilim dara-jasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratiladi.

O'quvchilar darsliklar yordamida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib yetishish-lariga erishish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha DTS va „Ona tili" o'quv dasturida o'qish ta'limi oldiga qo'yilgan talablarni amalga oshirish sinfda o'qishni to'g'ri tashkil qilish, o'qitish bosqichlari, tamoyillari va metodlari, birinchi navbatda, ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanishga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Umuman olganda, o'qish darslari oldiga qo'yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qishlarini shakllantirish.

O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni o'lishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish; ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.

O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o'stirish.

O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.

Elementar adabiy tasavvurlarini shakllantirish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usuli mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi.

O'quvchilarga tilning lug'at tarkibini o'rgatishda lug'at ustida ishlash yo'llari.

So'z tilning ma'no bildiradigan asosiy birligidir. So'z va so'z birik-masi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud boigan barcha so'z va iboralarning yig'indisi lug'at tarkibi yoki leksiko deyiladi. Leksikologiya o'zbek tilining lug'at tarkibini o'rganadigan bo'limdir. Leksikologiya lug'at tarkibidagi so'zlarning nutqda ma'no ifodalash xususiyati, qo'llanish faolligi, boyib borilishi, ba'zi so'zlarning eskirib, iste'moldan chiqib ketishi, ma'no ko'chish hodisasi kabilarni o'rganadi. Shu sababli leksikologiya lug'at ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi.

Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, mazmunga mos so'z va so'z birikmalarining ma'lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug'ati qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo'ladi; o'z fikrini aniq va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lug'atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning muhim sharti hisoblanadi.

O'quvchi lug'atining boyishiga, birinchi navbatda, uni o'rab olgan muhit, tabiat, kishilarning hayoti, o'qish faoliyati, kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan muloqatlari asosiy manba vazifasini bajaradi.

Bola tabiat va insonlar bilan munosabatda bo'lishi natijasida so'z, ibora tasviriy ifoda, maqol, hikmatli so'zlarni o'rganadi, ularni o'z so'zlariga aylantiradi.

Badiiy asarlar o'quvchilar lug'atini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba hisoblanadi. O'qish darslarida badiiy asarlar bilan tanishish, tahlil qilish jarayonida o'quvchilar lug'ati ma'lum mavzular bo'yicha ham boyib boradi.

Masalan, yil fasllariga oid mavzular bilan tanishish jarayonida tabiatdagi o'zgarishlar, qushlar, jonivorlar, hayvonot olami, dov-daraxtlar, maysa-giyohlar bilan bog'liq tushunchalari shakllantiril-sa, ma'naviyat, yaxshilik va yomonlik,

do'stlik mavzularidagi asar-larni o'rganish orqali insoniy munosabatlar, ahloq-odob yuzasidan muayyan xulosalarga keladi.

Matnni o'qish jarayonida so'zning ma'nosi tushuntirilmaydi. Agar unga zarurat sezilsa, o'quvchilar diqqati matn mazmunidan chalg'itilmay, qisqa izoh berib o'tib ketiladi.

Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlar matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi. Chunki ularning ma'nosi matn mazmunidan yaxshi tushuniladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarning o'rganishi ko'zda tutilgan bilimlarni egallashlarida, ularni amaliyotda qo'llashlarida tilning lug'at boyligini o'zlashtirishlari va uni o'z mulklariga aylan-tirishlari muhimdir.

Boshlang'ich ta'limda lug'at ustida ishlashning umumiy yo'l-yo'riqlari, yo'nalishlari, manbalari haqida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularni hali qoniqarli ahvolda deb bo'lmaydi.

Lug'at ustida ishlash uchun maxsus dars ajratilmaydi. U barcha predmetlarni o'rganishda, asosan, ona tili va o'qish darslarida dars-lik materiallarini o'rgatish bilan bog'liq holda olib boriladi.

Ona tili darslarida lug'at ustida ishlash o'quvchilar nutqini o'stirishga, savodxonligini shakllantirishga, so'z boyligini boyit-ishga, nutq madaniyatini yuksaltirishga qaratilganligi sababli bu ish maktablarda 1-sinfdan boshlanadi va butun o'quv jarayonida davom ettiriladi.

Maktabda nutq o'stirishning muhim vazifalaridan bin lug'at ustida ishlashni yaxshilash, tartibgasolish, uning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash, o'quvchilarning lug'atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi.

Maktabda lug'at ustida ishlash metodikasi to'rt asosiy yo'nalishni ko'zda tutadi:

1.O'quvchilar lug'atini boyitish, ya'ni yangi so'zlarni, shuningdek, bolalar lug'atida bo'lgan ayrim so'zlarning yangi ma'nolarini o'zlash-tirish. Ona tilining lug'at boyligini bilib olish uchun o'quvchi o'z lug'atiga har kuni 8—10 ta yangi so'zni, shu jumladan, ona tili darslarida 4—6 so'zni qo'shishi, ya'ni shu so'zlar ma'nosini o'zlashtirishi lozim.

2.O'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish. Bu o'z ichiga quyidagi-larni oladi:

1) o'quvchi puxta o'zlashtirmagan so'zlarning ma'nosini to'liq o'zlashtirish, ya'ni shu so'zlarni matnga kiritish, ma'nosi yaqin so'zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo'llari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritish; 2) so'zning kinoyali ma'nosini, ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirish; 3) so'zlarning sinonimlarini, sinonim so'zlarning ma'no qirralarini o'zlashtirish; 4) ayrim frazeologik birliklarning ma'nosini o'zlashtirish.

3.Lug'atni faollashtirish, ya'ni o'quvchilar ma'nosini tushunadi-gan, ammo o'z nutq faoUyatida ishlatmaydigan nafaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atiga o'tkazish. Buning uchun shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o'qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4.Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan nafaol lug'atiga o'tkazish. Bunday so'zlarga bolalarning nutq muhiti ta'sirida o'zlashib qolgan adabiy til me'yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so'zlashuv tilida qo'llanadigan sodda so'z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so'zlar kiradi. Adabiy til me'yori degan tushunchani o'zlashtirgach, o'quvchilar yuqorida izohlangan so'zlar o'rniga adabiy tildagi so'zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so'zlar, so'zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so'z va iboralar o'quvchilarning faol lug'atidan chiqib keta boshlaydi.

O'quvchilar lug'ati quyidagi manbalar asosida boyitiladi va takomillashtiriladi:

1. Atrof-muhitni: tabiatni, kishilarning hayoti va mehnat faoliyati, bolalarning o'yini va o'qish faoliyatini, kattalar bilan munosabatni kuzatish. Tabiat qo'yniga, turli joylarga, muassasalarga ekskursiya vaqtida bolalar narsa va hodisalarni kuzatish bilan ko'pgina yangi nom va iboralarni o'rganadilar. Bu ekskursiyalar yuzasidan o'tkazilgan suhbat vaqtida ularning bilimi chuqurlashtiriladi, ayrim so'zlar ma'nosiga aniqlik kiritiladi.

O'quvchilar lug'atini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba badiiy asarlar hisoblanadi. O'qish darslarida o'quvchilar Oybek, H.Olimjon, M.

Shayxzoda, G'.G'ulom, H. Hakimzoda, Zulfiya, X.To'xtaboyev, P. Mo'min, Q. Muhammadiy, Sh.Sa'dulla, Z.Diyor, N.Fozilov, T. Adashboyev, A. Obidjon kabi ko'pgina so'z ustalarining asarlarini o'qiydilar. O'zbek tilini yuksak badiiy obrazlar yordamida o'zlashtiradilar. O'qish darsida bolalar lug'ati ma'lum mavzularga oid so'zlar hisobiga ham boyiydi. Ular lug'atiga axloqiy tushunchalarni ifodalovchi yoqimtoy, shirinso'z, mehribon, haqcpniy, botir, mard, ja-sur, mehnatsevar kabi ko'pgina so'zlar qo'shiladi. Matn ustida ishlash jarayonida ko'p ma'noli so'zlar, sinonimlar, ko'chma ma'noda ishla-tiladigan so'zlarni, ba'zi frazeologik birikmalarni bilib oladilar.

Bolalar mustaqil o'qishga o'rganganlaridan keyin ular lug'atiga ki-tob, gazeta, jurnal materiallari katta ta'sir qiladi. Shuning uchun ham sinfdan tashqari mustaqil o'qish va unga rahbarlik shakllari o'quvchilar lug'atini boyitishning, nutqini o'stirishning eng muhim manbalaridan hisoblanadi.

Maxsus mashqlar yordamida grammatika va imloni o'rganish darslari ko'pgina so'z va atamalarni o'zlashtirishga yordam beradi, o'quvchilar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan so'zlarni bilib oladilar. Bu darslarda o'quvchilar lug'ati tartibga solinadi, so'z turkumlarini o'rganish jarayonida guruhlanadi, so'z tarkibi, so'z yasalishi, so'zlarning o'zgarishini o'rganish bilan esa lug'atga aniqlik kiritiladi; ular o'rgangan so'zlaridan o'z nutqlarida foydalana bosh-laydilar, natijada lug'atlari faollashadi. O'quvchilar lug'ati maxsus lug'aviy-mantiqiy mashqlar yordamida ham boyiydi, tartibga tushadi.

Bulardan tashqari, kinofilm va tele ko'rsatuv matnlari, o'qituvchi va boshqa maktab hamda maktabdan tashqari muassasalar xodimlari-ning nutqlari ham o'quvchilar lug'atini boyitish va takomillashtirish manbalari hisoblanadi. Lug'atni boyitishda turli lug'atlar juda foydali qo'llanmadir. Boshlang'ichinfo'quvchilari uchun „Imlo lug'ati" mavjud. O'qituvchi ma'lumot uchun ham, material tanlash uchun ham turli lug'atlardan (o'zbek tilining sinonimlar, antonimlar, frazeologik lug'atlaridan, turli terminologik lug'atlardan) muvaffaqiyatli foydalanadi.

So'zlarning ma'nosini tushuntirish o'quvchilar lug'atini boyi-tadi, nutqini o'stiradi. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlar-ning atamaları ham tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlar qatoriga kiritiladi. Atamalarning ma'nosini tushuntirish mazkur so'z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining ma'nosini tushuntirish bilan o'quvchilar predmet keng ma'noda qo'llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar. Bu ot, sifat, son, fe'l kabi atamalarni tez fahmlab olishda ularga yordam beradi.

So'zning ma'nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmasligi kerak. Bu-ning uchun o'qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma'nosi tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi o'rnida tushuntirishni belgilab oladi.

O'qish kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma'nosini bilmaydigan ayrim so'zlar matnni o'qishdan oldin tushuntiriladi.

Matnni o'qish jarayonida so'z ma'nosini tushuntirishga chek qo'yish kerak. Agar biror so'zni matnni o'qish vaqtida tushuntirish zaruriyati tug'ilsa, matn mazmunidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmagan holda shu so'z ma'nosi qisqacha tushuntiriladi.

Ko'chma ma'noda ishlatilgan obrazli so'zlar va badiiy nutq birlik-lari matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma'nosi matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o'qilganda, undagi allegorik, ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarni asarni o'qishdan oldin yoki o'qish jarayonida tushuntirib bo'lmaydi.

Metodikada so'zlarni tushuntirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

1. So'zni kontekst asosida tushuntirish. Bunda o'quvchilar tushunmaydigan so'z ularga tushunarli so'zlar qo'llangan gap (yoki matn) yordamida tushuntiriladi.

2. So'z ma'nosini lug'atdan va o'qish kitoblarida matn ostida berilgan izohdan foydalanib tushuntirish. Bunda o'quvchilarni izohdan mustaqil

foydalanib, so'z ma'nosini mustaqil tushnib olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

3. So'z ma'nosini shu so'zning ma'nodoshiyordamida tushuntirish. Masalan, sabo — shabada, mudofaa — himoya, sozanda — musiqochi, diyor — vatan, inshoot — bino, samo — osmon kabi. So'zni sinonim tan-lash bilan tushuntirganda, shu so'zning stilistik (uslubiy) ahamiyatini ham ko'rsatish zarur.

4. Tanish bo'lmagan so'z bilan ifodalangan tushunchani tanish bo'lgan so'z bilan ifodalangan tushunchaga (uning antonimiga) taqqoslash orqali tushuntirish. Masalan, ishchan tushunchasini dangasa tushunchasiga, rostgo'y so'zini yolg'onchi so'ziga taqqoslab tushuntirish mumkin.

Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'z va so'z birikmalari, tasviriy vo-sitalar, maqollar ham taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi.

5. So'zni o'ziga yaqin tushuncha ~ boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish. Bunda tushuntiriladigan so'zning izohi qisqa va aniq bo'lishi kerak. Masalan, o'zboshimchalik — o'z xohishicha ish tutish, ishni o'zi xohlaganicha bajarish; mutaxassis — biror hunar egasi; shim qor~ uzoq uchadigan ko'zi o'tkir qush; mesh ~ mol terisidan tikilgan idish; guidon - gill solib qo'yiladigan idish va boshq.

Ba'zi so'zlar ularning vazifasini izohlash orqali tushuntiriladi. Masalan, kombayn — bir vaqtning o'zida donni o'radigan, yanchadi-gan, tozalaydigan qishloq xo'jalik mashinasi; ekskavator — bir vaqtning o'zida erni qazib tuproqni yuk mashinasiga ortadigan mashina; aero-drom - samolyotlar turadigan, uchib ketadigan yoki kelib qo'nadigan joy va hokazo.

6. So'zni predmetning asosiy belgisini izohlash orqali tushuntirish. Masalan, yantoq — suvsiz joyda o'sadigan ninasimon tikanli o'simlik; akula - okeanlarda yashaydigan juda katta yirtqich baliq.

7. Axloqiy, mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi so'zlarning ma'nosini misollar yordamida tushuntirish. Buning uchun o'quvchilar o'rgangan badiiy asardan axloqiy fazilatga ega bo'lgan asar qahra-monining qilgan ishlari tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, so'z ma'nosini tushuntirish ustida ishlash o'quvchilar lug'atini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi.

Lug'at ustida ishlash onat tili darslarida ham, o'qish darslarida ham reja asosida izchil olib borilishi lozim.

Boshlang'ich sinflar uchun izohli, imlo lug'atlarining yaratil-maganligi lug'at ustida olib boriladigan ishlarni to'g'ri uyushtirishda ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Agar lugat ishi qat'iy reja asosida izchil amalga oshirilsa, o'quvchilardan ortiqcha mehnat talab qilmaydi. Bunga erishish uchun qunt, e'tibor, qat'iyatlik va sabot bilan ishlash zarur.

4-sinf o'qish darslari va darsligining umumiy tavsifi.

O'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra boshlang'ich ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Barcha predmet darslarini o'qish faoliyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki matn-ni tushunib, bir maromda, to'g'ri va ifodali o'qishni o'rgatish bilan o'qish darslari shug'ullanadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning DTS bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan bilimlarni hamda o'quv-biluv ko'nikma va malakalarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa, olamni an-qlashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi. Shuning uchun "O'qish kitobi" darsligiga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnat, istiqloq va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular kiritilgan. Mazkur mavzularga oid badiiy va ilmiy-ommabop asarlar ta'limiy, axloqiy xarakterda bolib, ular o'quvchilarning aqliy kamoloti va ma'naviy axloqiy tarbiyasiga qaratilgan.

"O'qish kitobi"da o'qishning barcha bosqichlariga oid mavzular berildi. Uning o'ziga xos xususiyati o'quvchilarni badiiy adabi-yotning sehrli olamiga olib kirish, dunyoqarashlarini milliy istiqloq mafkurasi asosida to'g'ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilana-di. Tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha bilim va tarbiya berishni ta'minlaydi. Ularning ichida istiqloq, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning o'zlikni anglash, istiqloq, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularini uyg'otishdir.

Tabiatga oid mavzular yordamida o'quvchilar tabiatdagi o'zgarishlar, yil fasllarining almashinuvi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egal-laydilar. Ular o'quvchilarni kuzatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

"O'qish kitobi" darsligidagi materiallarning sinfdan sinfga o'tgan sari mavzu jihatdan ham, mazmun jihatdan ham kengaya borishi hisobga olingan. 1-

sinfda o'rgatilgan "Ajdodlarimiz — faxrimiz", "Ilm — aql chirog'i", "Bizning bahor", "Kumush qish" kabi mavzular 2—4-sinflarda ham davom ettiriladi. Natijada o'quvchilarning oldingi bilimlari to'ldiriladi va boyitiladi.

Darslikdagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o'quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o'tmishi, xalq-imiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug' siymolar amalga oshirgan ishlar, tarixiy sanalar to'g'risida muayyan tasavvur beradi. Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi asarlar o'quvchilarni faqat o'tmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. Ularda Vatanga muhabbat tuyg'usi shu tariqa shakllanadi.

Vatanimiz o'tmishi haqida hikoya qilingan asarlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar. Jamiyat taraqqiyoti xususida qisqacha bo'lsa-da, tushuncha hosil qiladilar. Bu borada, ayniqsa, milliy istiqlol bilan bog'liq mavzudagi asarlar yordam beradi.

Badiiy asarlar matni ustida ishlash jarayonida ularning janriy xususiyatlaridan tashqari, mavzusi ham nazarda tutilgan holda metodik ismlar tasnif qilinadi. Masalan, tabiat tasviriga oid matnlar ustida ishlashda tabiat bag'riga sayohat uyushtirilib, bolalar kuzatu-vchanlikka o'rgatilsa, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili vatanning dongdor kishilari bilan uchrashuvlar yoki mavzuga daxldor kino-filmlar namoyishi vositasida amalga oshirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi.

Umuman "O'qish kitobi" darsligidagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirishga yordam berishga, nutq madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan.

O'quvchilarning darslik yordamida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tush-unib yetishlari nazarda tutilgan.

Darslikda o'qish darslari oldiga qo'yiladigan quyidagi didaktik vazifalar alohida inobatga olingan:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish.

2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish, ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.

3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk kishilar qilib va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy estetik tafak-kurini o'stirish.

6. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir vazifani bajarishning aniq metodik usullari mavjud. Ammo ular boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda o'qish darslari va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi.

Yaxshi o'qish sifatlarini egallash maktabda o'qitiladigan barcha predmetlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishni ta'minlaydi.

O'qish metodikasi ilmida o'qish malakasini shakllantirish so'zlarni bo'g'inlab o'qish malakasini shakllantirishdan boshlanishi qayd etiladi. So'ngra so'zlar sidiq'a o'qitiladi. Ma'lumki, so'zlar ko'rish orqali idrok qilinadi. So'zlarning ma'nosini to'g'ri talaffuz qilish orqaligina aniqlash mumkin.

To'g'ri o'qish matndagi so'zlarni tovush jihatidan xatosiz va bir maromda ravon o'qishdir. Adabiy talaffuz me'yorlariga qo'yiladigan barcha talablar o'quvchilarning to'g'ri o'qish ko'nikmalarini shakllantirishga ham taalluqlidir.

O'qiganda tovush va so'zlarni tush-urib qoldirmay, o'rmini almashtirmay, yangi tovush qo'shmay, so'z urg'ulariga rioya qilgan holda o'qish to'g'ri o'qish sanaladi.

O'qituvchi o'quvchilarning so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishlariga hamda ma'nosini anglashlariga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Ko'p bo'g'inli, tuzilishi jihatidan murakkab hamda oldin eshitil-magan va ma'nosi tushunarsiz so'zlarni izohlash talab etiladi.

Matndan o'qilishi qiyin, tuzilishi murakkab bo'lgan so'zlarni, birik-ma va gaplarni aniqlash, matnning yaxshi, o'rta va yomon o'qiydigan o'quvchilarga o'qitiladigan qismini oldindan belgilab chiqish zarur.

Urg'uni noto'g'ri qo'yib o'qish so'zlarning ma'nosini tushun-ishga xalal beradi.

4-sinfda o'quv materiali hajmi nisbatan katta. Shuning uchun o'quvchilarni to'g'ri va ravon, tez va ifodali o'qishga o'rgatishda, asar voqealari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda turli topshiriqlar asosida tanlab o'qishga katta e'tibor beriladi. Badiiy matnlar maz-muni asosida reja tuziladi, to'liq va qisqartirib, shaxsini o'zgartirib qayta hikovalatiladi.

Hozirda amalda qo'llanilayotgan 4-sinf o'qish kitobi S.Matchonov, A.SHojalilov, X.G'ulomova, SH.Sariev va Z.Dolimovlar hammuallifligida 2007 yilda chop etilgan. Darslik 271 sahifadan iborat bo'lib, 14 ta bo'limni o'z ichiga oladi. O'qish kitobiga epik turning hikoya, rivoyat, qissa (parcha); lirik turning she'r, liro-epik turning doston, adabiy ertak; halq og'zaki ijodining ertak, topishmoq, maqol, qo'shiq, doston kabi hilma-xil janrlari kiritilgan. Bundan tashqari darslikdan mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar, bo'lim yuzasidan savol va topshiriqlar hamda mavzular uchun ishlangan rasmlar o'rin olgan va darslik so'ngida lug'at ham ilova qilangan.

4-sinf o'qish kitobi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. "Istiqlolim – istiqbolim".
2. "O'zbekiston – vatanim manim".
3. "Oltin kuz".
4. "Ma'naviyat – qalb quyoshi".

5. “Xalq og’zaki ijodi”.
6. “Kumush qish”.
7. “Vatanimiz o’tmishda”.
8. “Nima yaxshi-yu, nima yomonx”.
9. “Hayvonot olamida”.
10. “Zumrad bahor”.
11. “YAshasin tinchlik, bor bo’lsin do’stlik”.
12. “Ajdodlarimiz – faxrimiz”.
13. “Jahon bolalar adabiyoti”.
14. “YOz - o’tadi soz”.

“O’qish kitobi” ning asosiy vazifasi bolalarda xalq og’zaki ijodiga, adabiyotga qiziqish uyg’otish, kitobni sevish, undan mustaqil foydalana olish ko’nikmalarini shakllantirish, ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashdan iboratdir. Albatta ular matn ustida ishlash ya’ni asarni o’qish orqali amalga oshiriladi

II. BOB. 4-sinfda tilning lug'at tarkibi yuzasidan bilimlar berish.

Kasb-hunarga oid so'zlar va ularni o'rgatish.

Ma'lumki, tilda mavjud bo'lgan barcha so'z va iboralarning yig'indisi tilning lug'at tarkibi yoki leksika deyiladi. Tilshunoslikda har qanday tilning lug'at tarkibi quyidagi to'rtta hususiya asosida o'rganiladi:

1. Qo'llanish doirasiga ko'ra.
2. Kelib chiqishiga ko'ra.
3. Zamoniylilik belgisiga ko'ra.
4. Nutq uslubiga xoslanishiga ko'ra.

Qo'llanish doirasiga ko'ra o'zbek tilidagi so'zlar umumiste'moldagi so'zlar hamda iste'mol doirasi chegaralangan so'zlarga bo'linadi. Iste'mol doirasi chegaralangan so'zlarga kasb-hunarga oid so'zlar, shevaga xos so'zlar, terminlar, jargon va argolar kiradi.

Kelib chiqishiga ko'ra esa o'zbek tilidagi so'zlarni o'z qatlam va o'zlashgan qatlam so'zlariga ajratish mumkin. O'zlashgan qatlamga mansub so'zlarni arabcha, forsha hamda ruscha-baynalminal so'zlar tashkil etadi.

Zamoniylilik belgisiga ko'ra o'zbek tili leksikasini quyidagi uchta guruhga ajratish mumkin: a) eskirgan so'zlar, b) zamonaviy so'zlar, s) yangi paydo bo'lgan so'zlar.

Ma'lumki, boshlang'ich sinfda o'quvchilarga beriladigan bilimlar bu davrda o'tiladigan fanlarning o'zaro bog'liqligi asosida mustahkamlab boriladi. Masalan, ona tili darslarida o'tilgan mavzular o'qish darslarida, o'qish darslarida o'rgatilgan bilimlar ona tili darslarida yanada chuqurlashtiriladi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida tilning leksikologiya bo'limiga oid muayyan bilimlar berish ko'zda tutilgan. Biroq ona tili darslarida ko'proq so'zning leksik ma'nosi bilan bog'liq (o'z ma'no, ko'chma ma'no, ma'nodosh so'zlar, o'zaro zid ma'noli so'zlar kabi). Hodisalarni o'rgatishga e'tibor

qaratiladi. Tilning lug'at tarkibi, xususan, eskirgan so'zlar, yangi paydo bo'lgan so'zlar, o'zlashma so'zlar, shevaga xos so'zlar, kasb hunarga oid so'zlar kabi leksik qatlamlar haqida ko'proq o'qish darslarida o'rgatib boriladi. Bunda o'rganilayotgan asar matnini tahlil qilish asosida ya'ni amaliy ishlar orqali nazariy bilimlar berib boriladi.

4-sinf o'qish darsligiga kiritilgan matnlarda kasb-hunarga oid ellikka yaqin so'zlar qo'llanilgan. Ular quyidagilardan iborat.

1. Normurod Norqobilovning "Xarita" hikoyasi (17-22 sahifa) matnidagi podayotoq;

2. Aziz Abdurazzoqning "Baqa bilan taqa" ertagi (89-93 sahifa) matnida qo'llanilgan taqachi, bolg'a, sandon;

3. Xakim Nazirning "Qodir bilan Sodir" hikoyasi (135-137-sahifalar) matnida berilgan shifokor, ukol, shpris, dori;

4. Nosir Fozilovning "YAxshi bo'ldi" hikoyasi (151-152-sahifalar) matnidagi usta, g'isht;

5. Farxod Musajonovning "YOmg'ir" hikoyasi (160-163-sahifalar) mantidagi rezinka, naycha;

6. R.Bekniyozning "Mo''jiza" hikoyasi (169-172-sahifalar) matnidagi ovchi, miltiq;

7. Nosir Fozilovning "Tushovli toy" hikoyasi (176-178-sahifalar) matnidagi tushov, sigir so'zlari;

8. P.Qodirovning "Ayiqli enggan cho'pon" hikoyasi (179-182-sahifalar) matnidagi mergan, qirqim, qirqlik so'zlari;

9. Nosir Fozilovning "Ko'kyol" hikoyasi (183-188-sahifalar) matnidagi quloqchin, tozi, miltiq, qopqon;

10. G'ayratyning "Buzilmagan uya" hikoyasi (201-206-sahifalar) matnidagi butoq, payvand;

11. "Sulton Mahmud va Beruniy" rivoyati (22-224-sahifalar) matnidagi usturlob, bo'r, taxtacha, jadval, kunda;

12. X.Sodiqovning “Tumaris” hikoyasi (216-219-sahifalar) matnidagi nayza, sandoq, sovut, hanjar kabi soʻzlar shular jumlasidandir.

Bundan tashqari darslik matnlarida kasb-hunar nomini bildiruvchi bastakor, boʻzchi, hakim, kitobdor, farmonbardor, lashkarboshi, munshiy, salloh, hattot, sarkarda, oshpaz, sharobkash, bogʻbon, choʻpon, kabobchi kabi bir qator soʻzlar ham qoʻllanilgan.

Yuqoridagi tahlil naʼmunalaridan koʻrinib turibdiki, kasb-hunarga oid talaygina soʻzlar qoʻllanilgan ushbu darslik orqali kasb-hunar leksika haqida bilib berish uchun katta imkoniyat bor.

Oʻqituvchi kasb-hunarga oid soʻzlar qoʻllanilgan matn oʻrganilganda bolalar eʼtiborini shu soʻzlarga qaratadi, masalan, 4-sinf oʻqish darsligidagi kasb-hunarga oid soʻz qoʻllangan dastlabki matn “Xarita” matnidir. Unda qoʻllanilgan podayotoq soʻzi lugʻat ishi uchun tavsiya etiladi. SHuda oʻqituvchi soʻzning “poda dam oladigan joy” degan maʼnosini izohlash bilan birga, bu soʻz choʻponlar nutqida ishlatilishini aytib oʻtadi. Soʻng quyidagicha maʼlumot beradi.

- Bolalar tilimizda shunday soʻzlar borki, ularning maʼnosini hamma bilsada, faqat ayrim kishilargina ishlatadi. Ular kasb-hunarga oid soʻzlar deb yuritiladi. Har bir kasb yoki hunar egalarining faqat oʻzlari koʻp qoʻllaydigan soʻzlari anashunday soʻzlardir.

Oʻqituvchi:

- Sizlar choʻponlar nutqiga oid yana qanday soʻzlarni bilasizx degan savol bilan murojaat qiladi.

SHuda oʻquvchilar tayoq, suruv, miltiq kabi soʻzlarni aytishlari mumkin.

Ana shunday dastlabki berilgan maʼlumot asosida ularning bilimlari kengaytirib boriladi, yaʼni yuqorida aytib oʻtilgan navbatdagi matnlar oʻrganilganida, albatta, kasb-hunar soʻzlari haqidagi nazariy tushuncha esga olinadi.

4-sinf oʻqish kitobidagi choʻponlar hayotiga oid bir nechta matn keltirilgan. Ular “Tushovli toy”, “Koʻkyol”, “Ayiqli enggan choʻpon”

hikoyalaridir. Bu matnlar o'rganilganida bolalarning lug'atiga cho'ponlik kasbiga oid suruv, tushov, qirqim, qirqlik, quloqchin, tozi, miltiq, qopqon kabi so'zlar qo'shiladi. Albatta, o'qituvchi ularni sanash bilangina cheklanmay ma'nosini ham izohlab berishi kerak.

Tushov – hayvonni shoxi, bo'yni yoki tuyog'idan bog'lab qo'yish.

Qirqim – qo'ylarni junini olish.

Qirqlik – qo'y junini olganda ishlatiladigan uchli, nayzasimon qaychini tayoqchaga bog'lab tayyorlanadigan qurol.

Tozi – ovda otilgan o'ljani topib kelishga o'rgatilgan it.

Suruv – qo'y yoki eski podasi.

Bu so'zning izohi bilan tanishtirilgan vaqda o'qituvchi quyidagicha savol bilan o'quvchilarga murojaat qiladi.

- Otlar podasi nima deyiladix

Agar bolalar savolga javob bersalar o'qituvchi ularni rag'batlantiradi. O'quvchilar “uyur” so'zini topa olmasalar, o'qituvchi bu so'zni o'zi aytib o'tadi va ma'nosini izohlaydi.

Xakim Nazirning “Qodir bilan Sobir” hikoyasi o'tilganda kasb-hunarga oid so'zlar haqida ma'lumot berish juda qulay.

Bunda o'qituvchi: - Bolalar matndagi shifokor so'zi qanday ma'noni bildiradix – deb savol beradi.

O'quvchilar: - Kasalliklarni davolaydigan kasb egasi – deb javob berishadi.

O'qituvchi: - To'g'ri, bugungi o'qilgan matndan bu kasb bilan bog'liq so'zlarni topinglar.

O'quvchilar matndagi ukol, shpris, dori so'zlarini aytadilar.

O'qituvchi: - SHifokorlar nutqiga xos yana qanday so'zlarni bilasizlarx.

O'quvchilar: - Paxta, bint, spirt va boshqalar.

Aziz Abdurazzoqning “Baqa bilan taqa” hikoyasi o'rganilganda o'zbek xalqining milliy hunarmandchiligi haqida gapirish mumkin. Bu matn qahramoni taqachi. Qadimda odamlar otlardan asosiy ulov sifatida foydalanganlar va bu

vaqtda otlar ko'p bo'lgan. Otning oyog'ini har-xil tig'li narsalar va zaharli hashorotlardan asrab turish uchun taqa qoqilgan. Taqa qoqish bilan shug'alanadigan kishilar taqachi deyilgan. Ularning ish jarayonida ishlatadigan asosiy asboblari mix, bolg'a, sandon hisoblanadi.

Sandon – temirdan qilingan kunda.

Bizning ota – bobolarimiz juda ko'p hunarlar bilan shug'ullanganlar, masalan, chevarchilik, do'ppichilik, kosibchilik, zardo'zchilik, temirchilik, naqqoshlik, o'ymakorlik va boshqalar. Bu hunarlarning har birini o'ziga xos asbob – anjomlari bor. Hozirda bu hunarlar bilan shug'ullanuvchi kishilar kamayib ketganligi uchun ularning nomini ifodalovchi ko'pchilik so'zlarni hamma ham bilavermaydi.

Boshlang'ich sinfning o'qish darslari orqali kasb – hunarga oid so'zlarni o'rgatishda darslikda berilgan matnlar bilan chegaralab qolmaslik kerak. O'quvchilarga "Men sevgan kasb" mavzusida insho yozdirish orqali ham ularning kasb – hunarga oid bilimlarini va leksikasini boyitish mumkin.

SHuningdek, kasb – hunarga oid so'zlar qo'llanilgan matnlar o'rganilganda didaktik o'yinlardan ham foydalanish mumkin. Masalan, "Kim ko'p so'z topadi" sharti asosida har bir guruh o'quvchilariga ma'lum kasb yo'nalishlari belgilab beriladi. Ular shu kasbga oid so'zlarni yozadilar:

1-guruh uchun – tikuvchilar,

2-guruh uchun – quruvchilik,

3-guruh uchun – sartaroshlik.

Demak, o'qish darslarida kasb-hunarga oid so'zlarni o'rgatishda quyidagi usullarni tavsiya etish mumkin:

1. O'qish kitobidagi matnda qo'llanilgan kasb-hunarga oid so'zlar ustida ishlash.
2. O'quvchilarga "Men sevgan kasb" mavzusida insho yozdirish.
3. Mavzuga doir o'yin va topshiriqlarni bajartishi.

O'quvchilarga kasb-hunar so'zlarini o'rgatish quyidagi amaliy ahamiyatga ega.

1. Tilning leksik tarkibi haqida ma'lumot beriladi.
2. O'quvchilarning so'z boyligi oshiriladi.
3. O'quvchilarning borliq haqidagi bilimlari kengaytiriladi.
4. Muayyan kasb egasi bo'lishga yo'naltiriladi.
5. O'zbek milliy hunarmandchiligi haqida tasavvur hosil qilinadi.

Shevaga xos so'zlar va ular ustida ishlash.

4-sinf o'qish kitobida 30 ga yaqin shevaga xos so'zlar qo'llanilgan bo'lib, ular qo'llanilgan mavzular o'rganilganida o'tkaziladigan lug'at ishlari o'quvchilarga shevaga xos so'zlar haqida nazariy tushuncha berish zarurligini ko'rsatadi. Quyida ushbu so'zlar tahlilini ko'rib o'tamiz.

CHakmon – 143-149-sahifalarda berilgan Sunnatilla Anorboevning “Qo'rqqoq” hikoyasidagi: “Faqat uyqudan uyg'onganday ko'zini ochsa, kimdir uni chakmonga o'rayotgan ekan” gapida. Bu so'zning adabiy tildagi shakli to'n bo'lib, chakmon – adabiy tilda paxtasiz, astarsiz to'nga nisbatan ishlatiladi. O'g'uz laxchasi shevalarida esa xar ikkisi ham chakmon deb yuritiladi.

Bo'ysara – 150- betda berilgan Sultonjo'raning “kimning xati chiroyli” she'rida qo'llanilgan. Xarflar bo'lib bo'ysara

Doim menga bo'sunar.

Bu so'zning adabiy tildagi shakli bo'yma-bo'y bo'lib, qipchoq laxjasi tarkibidagi shevalarida qo'llaniladi.

Jir – 169-betdagi Raxim Bekniyozning “Mo'jiza” hikoyasidan: Quyondar serob kuz emishlaridan semirib, rosa jir boylagan paytda ovga chiqdim. Adabiy tildagi shakli yog'.

Barra, qo'lontayoq – 177-178-betlardagi N.Fozilovning “Tushovli toy” hikoyasidan: Vahshiy bo'ri uning barra o'mroviga og'iz soldi. U shoshilib, etigini qo'lontayoq kiyib chiqqan edi.

Bu so'zlarning adabiy tildagi shakli yosh va bepaysava bo'lib, qipchoq shevasida shunday ishlatiladi.

Zov – 182-betdagi P.Qodirovning “Ayiqlar enggan cho'pon” hikoyasidan: Biz bunday toshjarni zov deymiz. Bu so'zning adabiy tildagi shakli jar.

Qayishib qolmoq – N.Fozilovning “Ko'kyol” hikoyasidan: Bo'ri doim bir tomonga chopaversa bo'yni qayishib qoladi, deyishardi. Bu so'zning adabiy tildagi shakli qiyshayib qoladi.

Ena – X.To'xtaboevning "Erka cholning ertagi" matnidan: O'ziyam tinmasdi, rahmatli enam ikkimizni ham tinchitmasdi. Bu so'zning adabiy tildagi shakli buvi.

Uy ko'tarish, lochira – M.Alaviyaning "Navro'z – bahor bayrami" ilmiy – ommabop matnidan: Uylar ko'tarilib, idish-tovoqlar yuvilib, pokizalanadi. Moy, qaymoq, jizza, yong'oq solib cho'zma, chalpak, kulcha, lochiralar pishiriladi. Bu so'zlarning adabiy tildagi shakli uy tozalash va patr.

Hovoncha – 251-betdagi Qambar O'taevning "Non qaerdan keladi" she'ridan: Hovonchalarda tuyar

Ushog'in o'pib qo'yar.

Bu so'zning adabiy tildagi shakli kelicha.

Takiya – 122-betdagi G'ofur Gulomning "SHum bola" matnida qo'llanilgan. Adabiy tildagi shakli do'ppi.

CHildirma – 259-betdagi X.To'xtaboevning "Nihollarning nolası" hikoyasida qo'llanilgan. Bu so'zning adabiy tildagi varianti doira.

Demak, o'qish kitobidagi matnlarda yuqoridagi kabi shevaga xos so'zlar qo'llangan. O'qituvchi bu so'zlar qo'llanilgan matnni o'rgatishda shevaga xos so'z haqida nazariy ma'lumot beradi.

Tilimizdagi ba'zi so'zlar republikamizning turli hududlarida yashaydigan kishilar nutqida boshqacha shakilda qo'llanadi. Masalan: do'ppi – takya, yostiq – bolish. Ana shunday so'zlar shevaga xos so'zlar deyiladi. Hamma uchun umumiy bo'lgan so'zlar esa adabiy tilgan xos so'zlar deyiladi.

Boshlang'ich sinfda shevaga xos so'zlarni o'rgatish matnda qo'llanilgan shunday so'zlarni izohlashdan boshqacha usullarda ham olib borilishi mumkin. Bunda o'qituvchi o'zi yashab turgan hudud aholisining shevasida qo'llanuvchi so'zlarni adabiy tildagi shakli bilan qiyoslaydi. Ularga quyidagi misollarni keltirish mumkin.

YOstiq – Farxod Musajonovning "YOmg'ir" matnidan: Ko'rpasini, yostig'ini to'g'rilab, yaxshilab yotqizib qo'ydi. Bu so'z Farg'ona shevasida bolish deyiladi.

CHelak – X.To'xtaboevning "Nihollarning nolası" hikoyaidan: YAna bittasi bo'sh chelakni childirmon qilib chalib, jo'nab ketdi. Bu so'z Qo'qon atrofi qishloq shevalarida pakir deyiladi.

Narvon – 151-betdagi "YAxshi bo'ldi" hikoyasidan: Bitta g'isht kerak bo'lib qoldi: narvondan tushib, engashib zo'rg'a oldi. Bu so'z ham Farg'ona shevasida shoti deyiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga shevaga xos so'zlarni o'rgatish ularning og'zaki nutqini rivojlantirishda, so'z boyligini oshirishda, adabiy til me'yorlaridan to'g'ri foydalanishda katta amaliy ahamiyatga ega.

Eskirgan so'zlar va ular haqida ma'lumot berish.

Til uzluksiz harakatda, rivojlanishda bo'lib turadi, bu uning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqadi. Jamiyatda bo'lib turadigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiy va ma'rifiy sohalardagi islohotlar tilning lug'at boyligida yangi-yangi so'z va atamalarining yuzaga kelishini, ayni paytda ma'lum so'zlarning eskirib iste'moldan chiqishini taqozo qiladi.

Til leksikasidagi so'zlar zamoniyligi hamda eskilik va yangilik bo'yog'i borligiga ko'ra uch qatlamga ajratiladi:

- 1) Zamonaviy qatlam.
- 2) Eskirgan qatlam.
- 3) YAngi qatlam.

Bugungi adabiy til nuqtai nazaridan eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar eski qatlamni tashkil etadi. Eski qatlamga oid so'zlar asosiy xususiyatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi. a) tarixiy so'zlar, b) arxaizmlar.

Xozirgi kunda mavjud bo'lmagan, yo'q bo'lib ketgan narsa va hodisalarning nomini ifodalovchi so'zlar tarixiy so'zlar deyiladi.

Arxaizmlar hozirda mavjud bo'lgan narsa va hodisalarning eskirgan nomi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tilning lug'at tarkibi yuzasidan beriladigan dastlabki bilimlarning asosiy qismini eskirgan so'zlar tashkil etadi. Bunda o'quvchilarga matnda uchragan ma'nosi tushunarsiz so'zlarni izohlash jarayonida eskirgan so'zlar haqidagi sodda nazariy tushuncha berib o'tiladi.

Boshlang'ich sinf o'qish kitoblarida berilgan tarixiy mavzuga oid matnlarda eskirgan qatlamga mansub so'zlar mavjud bo'lib, bu ularning janr xususiyatidan kelib chiqadi.

4-sinf o'qish kitobida ham juda ko'plab eskirgan so'zlar uchraydi. Darslikda jami 87 ta matn berilgan bo'lib (she'rlardan tashqari), ular ichida eskirgan so'zlar qo'llanmagan matnlar sanoqlidir. Hattoki, darslikning dastlabki "Istiqlolim – istiqbolim" bo'limidagi eng birinchi matnda ham bir nechta

eskirgan soʻz qoʻllanilgan. Ushbu matn Safar Barnoevning “Mangulikka tatigulik kun” nomli ilmiy-ommabop matni boʻlib, unda shoh, sarkarda, sohibqiron, paygʻambar kabi eskirgan soʻzlar ishlatilgan. Darslik oxirida maʼno qiyin soʻzlar uchun lugʻat berilgan boʻlib, unda 114 ta soʻzning izohi keltirilgan. Ana shu soʻzlarning 50 ga yaqini eskirgan soʻzlar boʻlib, ular quyidagilardir: alvon, amiral muminin, arkoni davlat, betilmoch, bir miri, bir tanob, boʻzchi, chaqirim, CHin, chorakor, faqir, farmonbardor, firdavs, gulob, hakim, hammol, hisor, kitobdor, kunda, lashkarboshi, madrasa, massaget, meʼmor, mesh, mirshab, mulozim, munshiy, nasim, oʻtov, salloh, saltanat, sarkarda, sharob, may, shahanshoh, sovut, sulton, suygʻun, taxdiravon, usturlob, hanjar, vojib, hattot, tib.

Darslikda qoʻllanilgan eski qatlamga mansub soʻzlar muayyan matnni oʻrganish jarayonida oʻqituvchi tomonidan oʻtkazilgan lugʻat ishida izohlab berilganda hamda oʻquvchi soʻz zahirasiidan joy olgandagina oʻqish darslarining nutq oʻstirish maqsadi toʻla amalga oshadi.

4-sinf oʻqish kitobining “Vatanimiz oʻtmishidan” hamda “Ajdodlarimiz – faxrimiz” boʻlimlari tarixiy mavzuga bagʻishlangandir. Bu boʻlimlarga oid matnlar oʻrganilganda oʻquvchilar koʻplab eskirgan qatlamga oid soʻzlar va ularning maʼnolari bilan tanishadilar.

“Vatanimiz oʻtmishidan” boʻlimi 10 soatga moʻljallangan boʻlib, “Kitobga ixlos” (hikoya, Mirkarim Osim), “Pahlavon va shoir” (hikoya, X.Hamidov), “Alisherning yoshligi” (qissadan parcha, Oybek), “SHum bola” (qissadan parcha, Gʻ.Gʻulom), “Bolalik” (qissadan parcha, Oybek) matnlarini oʻz ichiga oladi.

Boʻlimdagi materiallarni oʻrganish orqali oʻquvchilar Ona Vatanimizda yashab, ijod etgan ajdodlarimizning hayot va ijodlari bilan tanishtiriladi. Boʻlimdagi matnlarda ajdodlarimiz hayotining ibratga loyiq tomonlari aks ettirilgan. Ularni oʻqish jarayonida oʻquvchilar ajdodlarimiz hayotidan ibrat olishga, oʻzlari ham ularga oʻxshashga harakat qiladilar. Oʻqituvchi hikoyalarni oʻrgatishda ular oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni taʼminlash kerak. Ajdodlarimiz

hayotini o'rganish mustaqilligimiz sharofati bilan amalga oshganligi o'quvchilar ongiga singdiriladi.

“Kitobga ixlos” hikoyasida buyuk vatandoshimiz Abu Ali Ibn Sinoning o'smirlik yillarida kechirgan voqealar haqida so'z boradi. Ushbu hikoyada qo'shin, ishg'ol, mutolaa qilish, hakim, madrasa, talaba, xujra, tib, yarog' kabi 10 ta eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'z qo'llanilgan. Biroq ular ichida ishg'ol, mutolaa, xujra, tib, yarog' kabi so'zlar izoh talab so'zlardir. O'qituvchi lug'at ishi jarayonida ularni ishg'ol qilmoq – bosib olmoq, mutolaa – o'qimoq, xujra – kichkina, darchasiz xona. Tib – medesina, yarog' – qurol deb sharhlash bilan birga, bunday so'zlarni kundalik turmushda, so'zlashuv jarayonida qo'llanmasligi, faqat tarixiy kitoblardagina ishlatilishi haqidagi ma'lumotni ham aytib o'tishi kerak.

“Paxlavon va shoir” hikoyasida Paxlavon Maxmud (XIII – XIV asrlarda Xivada yashab ijod etgan)ning oliyjanoblighi, mardlik va jasorati, yuksak insoniy fazilati, umuman, hayoti haqida hikoya qilinadi.

Matnda saroy, sulton, mulozimlar, arkoni davlat, zindon, taxtiravon kabi eskirgan so'zlar uchraydi. Ular ichida saroy so'zidan boshqa barcha so'zlar ma'nosi o'quvchilarga notanish bo'lib, o'qituvchi tomonidan tushuntirib berishni talab qiladi.

YOzuvchi Oybek buyuk mutafakkir, she'riyat mulking sultoni, o'zbek tilining asoschisi, hazrati Alisher Navoiy haqida nafaqat kattalarga, balki bolalarga atab ham asarlar yozgan. Navbatdagi “Alisherning yoshligi” matni yozuvchining shu nomli qissasidan olingan parcha bo'lib, unda buyuk bobomizning hayoti, xususan, bolalik olamining beg'ubor va betakror ta'assurotlari xaqida hikoya qilinadi. Ushbu parchada shahzoda, kamar, hanjar, qullar, kanizaklar, sovut, yov, qilichboz, gulob, malika, qasr, kulli jahon, yanglig' kabi eskirgan qatlamga mansub so'zlar qo'llanilgan. Bu so'zlarning aksariyati lug'at ishi jarayonida tahlil qilinishi zarur. Biroq shahzoda, qul, hanjar, malika, qasr kabi so'zlar eskirgan qatlamga mansub bo'lsada, 4-sinf o'quvchisiga juda yaxshi tanish va tushunarlidir.

Sevimli adibimiz G'afur G'ulomning "SHum bola" qissasi bolalarning eng yoqtirgan, sevib o'qiydigan asarlaridan biri hisoblanadi. Ana shu qissadan olingan parchada ham novqoslanib, taqsir, bir miri, sag'ri, muhra kabi eskirgan so'zlar qo'llanilgan.

"Bolalik" qissasidan olingan parchada papax, mirshab, oq podsho kabi eskirgan so'zlar uchraydi.

Darslikning tarixiy mavzudagi bo'limlaridan yana biri "Ajdodlarimiz – faxrimiz" bo'limi bo'lib, undagi materiallarni o'rgatishda o'quvchilarni ulug' bobolarimizning hayoti va ijodi, ilmiy faoliyatlari haqida oldingi sinflarda olgan bilim va tushunchalariga asoslanib, yangi bilim va ma'lumotlar beriladi. O'quvchilar butun yil davomidagi o'qish jarayonida ajdodlarimiz qoldirib ketgan bolalarning yoshiga mos asarlar bilan yaqindan tanishadilar.

O'qituvchi "Ajdodlarimiz – faxrimiz" mavzusida ilk darsini boshlashdayoq o'quvchilar ongiga, ruhiga ulug' ma'rifatparvar ajdodlarimizning ziyo tarqatish.yu ilm ulashish yo'lidagi sa'yharakatlari qanchalik mashaqqatli, ammo sharafligini singdirishi asosiy maqsad qilib belgilangan.

Bo'lim materiallarini o'quvchi o'rganib borar ekan, muqaddas diyorumizda yashab, ijod qilgan ulug' adiblar, buyuk olimlar, ustozlarimiz haqida, ularning ilmiy faoliyatlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Ularning nodir asarlari vatanga, ona yurtga sodiq, vafodor insonlarni shakllantirishda juda katta o'rin egallashiga alohida e'tibor qaratiladi.

Bo'lim 9 soatga mo'ljallangan bo'lib, unda "Tumaris" (hikoya, X.Sodiqov), "Najmiddin Kubro" (rivoyat), "Sulton Mahmud va Beruniy" (rivoyat), "Tanbeh" (rivoyat, Xondamir), "Navoiy bobomlar" (she'r, T.Adashboev), "Xidi, tilimi va mazzasidan" (rivoyat), "Rivoyat" (N.Karimov) matnlari berilgan. Quyida ularda qo'llanilgan eski qatlamga mansub so'zlar tahlilini ko'rib o'tamiz.

"Tumaris" hikoyasida: hukmdor, massagetlar, shahanshohim, sarkarda, lashkarboshi, mulozim, Foks, fors, sharob, may, malika, chopar, maktub, qal'a, shahid so'zlari ishlatilgan.

“Najmiddin Kubro” matnida: mo’g’ul, hukmron, onhazrat, maktub kabi so’zlar ishlatilgan.

“Sulton Mahmud va Beruniy” matnida: munajjim, usturlob, sulton, g’ulom, qasr, soyabon, amr so’zlari qo’llanilgan.

“Tanbeh” matnida: naqqosh, amir, munshiy, devoniy oliy, dinor, navkar, maktub, shahzoda, banda, gribon, musharraf bo’lmoq, devon, mulozim kabi so’zlar qo’llanilgan.

“Navoiy bobomlar” she’rida: mag’rib, mashriq, zabon kabi so’zlar qo’llanilgan.

“Hidi, tilimi va mazzasidan” matnida: falakning gardishi, sulton, shohim, padari buzrukvorim kabi so’z va iboralar ishtirok etgan.

YUqoridagi tahlil namunalaridan ko’rinib turibdiki, tarixiy mavzudagi har bir matnda bir qancha eskirgan so’zlar qatnashgan bo’lib, o’qituvchi ularni o’z e’tiboridan chetda qoldirmasligi kerak. Chunki o’quvchilar matnda ma’nosi tushunarsiz so’zlarga qancha ko’p duch kelsalar, uni o’qish shunchalik zerikarli tuyuladi. Qolaversa, o’qish darslarining etakchi maqsadi nutq o’stirish va so’z boyligini oshirib borish kabilar amalga oshmay kolaveradi.

O'qish darslarida ruscha - baynalminal so'zlarni o'rgatish yo'llari.

Dunyoda hech bir til faqat o'z so'zlaridan iborat emas. Har qanday tilda ham boshqa tillarga mansub so'zlar ko'plab uchraydi. Hozirgi o'zbek adabiy tili lug'at tarkibida ham o'zlashgan qatlam katta qismni tashkil etadi. O'zlashma so'zlarni arabcha, forsha-tojikcha va evropa tillaridan kirgan so'zlar tashkil etadi. Evropa tillaridan kirgan so'zlar tilshunoslik fanida baynalminal so'zlar deb yuritiladi. Baynalminal so'zlarning asosiy qismini ilm-fan va texnikaga oid terminlar tashkil etadi.

Davlatlarning o'zaro aloka va munosabatlari rivojlangan, texnika va kompyuterlar taraqqiy etgan bizning hozirgi asrimizda ijtimoiy hayotning baynalminal so'z va tushunchalar kirib bormagan soxasi yo'q. Boshlang'ich sinf o'qish darsliklarida berilgan matnlar ham shular jumlasidandir. Chunki "Ta'lim to'g'risida"gi konun va "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi"da "kelajagi buyuk davlat" ning bo'lg'usi etuk kadrlari ilm-fan va taraqqiyotning, zamonaviy texnika va texnologiyalarning eng so'nggi yutuqdaridan xabardor bo'lishlari, ular asosida bilim egallashlari zarurligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Biz bu o'rinda e'tiborimizni 4-sinf o'qish kitobida qo'llanilgan baynalminal so'zlar tahliliga qaratmoqchimiz. Darslikda berilgan ilmiy-ommabob matnlarda 50 dan ortiq baynalminal so'zlar qo'llanilgan. Biroq, darslik so'nggida berilgan "Ma'nosi qiyin so'zlar lug'ati"da bu so'zlardan faqat bittasigina kiritilgan. (konveyer so'zi), qolgan so'zlar shevaga mansub va eskirgan so'zlardan iborat. Bu esa o'qituvchidan katta mas'uliyatni, ko'proq izlanish va "jon kuyitish"ni talab etadi. Chunki matndagi biror so'zning ma'nosini tushunmaslik shu darsdan ko'zda tutilgan maqsadlarning tulaqonli amalga oshishiga to'sik. bo'ladi. Masalan, ma'nosi tushunarsiz so'z matn uchun muhim ahamiyatga ega bo'lsa uning mazmunini to'la tushunmaslik, bu bilan bog'lik holda asar g'oyasini tushunmaslikka olib keladi. YOki o'qish darsining o'quvchilarni so'z boyligini oshirish maqsadi amalga oshmaydi. Ana shunday holatlar ro'y bermasligi uchun o'qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida matnda

qo'llanilgan baynalminal so'zlar ma'nosini albatta maxsus lug'atlardan ko'rib chiqishi va darsda lug'at ishi o'tkazishi zarur.

Hozirgi vaqtda ruscha baynalminal so'zlar o'zbek tilida so'zlashuvchi barcha kishilarning nutqida keng iste'molda bo'ladi. Chunki kundalik turmushimizdagi zaruriy ehtiyojlarning nomlari sifatida o'zbekcha muqobili bo'lmagan stol, stul, divan, kravat, shkaf, televizor, ruchka, parta kabi ko'plab so'zlar hattoki bog'cha va maktab yoshidagi bolalar nutqida ham uchraydi.

4-sinf o'qish kitobida berilgan matnlar tarkibida 60 dan ortiq ruscha – baynalminal so'zlar qo'llanilgan. Ular ichida quyidagi avtomat, robot, motor, konveer, kuzov, kapot, bloknot, garderob, koridor, kassa, posilka, stansiya, kamer – yunker kabi so'zlar o'quvchilar uchun ma'nosi tushunarsiz, ular birinchi marta duch kelayotgan so'zlardir. Bu so'zlar asosan E.Malikovning "Assalom, Neksiya", A.Fozilovning "Olti yuz so'm", X.To'xtaboevning "Do'stlik", G.X.Andersonning "Bolalar gurungi" matnlarida qo'llanilgan.

Biz yuqorida bildirilgan fikrlarimizni darslikning 7-8-sahifalarida berilgan Erkin Malikovning "Assalom, Neksiya" matni misolida yoritib bermoqchimiz. Bu matn ilmiy-ommabob matn bo'lib, darslikning "Istiqlolim-istiqbolim" mavzudagi bo'limida berilgan. Unda mustaqil O'zbekistonning avtomobil sanoati xaqida o'quvchilarga ma'lumot beriladi. Asar g'oyasi esa bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, o'z vatanining qudrati va yutuqlari bilan farxrlanish xissini o'rgatishdan iborat. Ushbu matnda Neksiya, Tiko, Damas, avtomobil, kompyuter, robot, avtomat, konveyer, kuzov, kapot kabi 11 ta baynalminal so'z qo'llanilgan. Kurinadiki, bu darsda o'qituvchidan albatta lug'at ishi o'tkazish talab etiladi. Chunki matnda qo'llanilgan baynalminal so'zlarning ma'nosini izohdamay turib, uning mazmunini tushunib bo'lmaydi. Bunda o'qituvchi lug'at ishini quyidagicha tashkil etadi. Berilgan so'zlarni ma'nosi tanish, ma'nosi qisman tanish va ma'nosi mutlaqo notanish kabi uchta guruhga ajratib oladi. 1-guruhga -neksiya, tiko, damas, kompyuter kabi so'zlar kiritiladi. O'qituvchi bu o'rinda ana shu narsalarning rangli tasviri tushirilgan rasmlarni ko'rsatadi. Neksiya, Tiko, Damas O'zbekistonda ishlab

chiqarilayotgan mashinalarning nomi ekanligi aytiladi. 2-guruhga robot, avtomat, avtomobil, zavod kabi so'zlar kiritiladi. Bu so'zlarni izohlashda o'qituvchi dastlab o'quvchilarning shu so'zlarning ma'nolari yuzasidan tushunchalarni aniqlaydi va asosiy e'tiborni ana shu tushunchalarni kengaytirishga, so'zlarni yangi ma'no qirralari bilan boyitishga qaratadi. Chunki bolalar robot, avtomat, avtomobil so'zlarini uyinchoqlar nomi sifatida biladilar.

Robot - murakkab operasialarni ham xuddi odamlardek bajaradigan qurilma ekanligini, katta zavodlarda barcha og'ir ishlarni robotlar bajarishini aytib o'tadi.

Avtomat - bolalar tushunganidek o'q otish quroli ma'nosidan tashqari kishining bevosita ishtirokisiz, uning nazorati ostida o'z-o'zidan ishlaydigan apparat nomi ham ekanligi aytiladi.

Avtomobil - so'zi izohlanganda so'zlar tarkibida qatnashuvchi "avto" qismi alohida sharhlanadi. Avto - "O'zi" degan ma'noni anglatishi, ya'ni bu o'zi yuradigan mashina ekanligi aytiladi. Misol tariqasida avtomat - o'zi xarakatlanadigan, avtoportret - o'zining rasmi, avtobiografiya - tarjimai hol kabilar izohlanadi.

3-guruhga motor, konveyer, kuzov, kapot kabi so'zlar kiritiladi. Ularni izohlashda ham ana shu narsalarning rasmi tasvirlangan ko'rgazmadan foydalanish kerak.

Motor - mashinaning asosiy qismi bo'lib, yonilg'i xisobiga mashinani xarakatlantiruvchi qurilma.

Konveyer - uzluksiz aylanib turuvchi lentasimon qurilma, uni ekskavatorning xarakatlanayotgan gildiragiga o'xshatish mumkinligini aytish bolalarda yana ham aniqroq tasavvur uyg'otadi.

Kuzov - mashinaning ichki detal va g'iddiraklarsiz qismi. Bu so'zni izohlashda aynan o'yinchoq mashinani g'iddiraklari echib olingan holatda ko'rsatish mumkin.

Kapot - mashinaning old yoki orqa qismi. Buni ham o'yinchoq mashina misolida ko'rsatib berish mumkin.

Agar bu dars mashinani ishlab chiqarish jarayoni tasvirga olingan disklarni nomoyish etish yoki shunday zavodlarga sayohat uyushtirish asosida tashkil etilsa - nur ustiga a'lo nur bular edi. Chunki bolalar faqat yangi so'zlar bilan tanishib qolmasdan, ularning ma'nosini o'zicha tasavvur etmasdan, balki bevosita yangi voqelik, hodisa, tushuncha bilan va bu orqali yangi so'z bilan tanishadilar. Ana shunda so'z ularning lug'atidan mustahkam joy oladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang'ich sinflarga chiqarilgan o'qish darsliklaridagi baynalminal so'zlarni o'rgatish uchun alohida tayyorgarlik ishlarini olib borish o'quvchilar uchun talay afzalliklarga ega: bunda ularning borliq va undagi hodisalar xususidagi tasavvuri kengayadi, so'z boyligi ortadi, talaffuz imkoniyatlari kengayadi, muayyan so'zning imlosi bilan tanishadilar va rus, ingliz, nemis tili kabi chet tillarni oson o'zlashtirishga zamin yaratiladi.

X U L O S A

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga leksik bilimlar berish faqat ona tili darslari bilan chegaralanib qolmasdan, o'qish darslari davomida ham o'rgatib boriladi. Ayniqsa, tilning lug'at tarkibini, undagi eskirgan va yangi paydo bo'lgan so'zlarni, shevaga xos so'zlarni, kasb – hunarga oid so'zlarni, ruscha – baynalminal so'zlarni o'rgatishda o'qish kitobida berilgan matnlar tahlili, har bir darsda o'tkaziladigan lug'at ishlari katta ahamiyatga ega. Bunda amaliy ishlar orqali nazariy bilimlar hosil qilib boriladi.

Ushbu tadqiqot ishida boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilning lug'at tarkibini o'rgatib borish masalasi yoritib berildi.

O'qish darslarida o'zbek tilining leksik tarkibini o'rgatish bolalarni keyingi bosqichlarda o'rganilishi kerak bo'lgan bilimlarni egallash uchun poydevor yaratish bilan birga quyidagilar uchun ham zamin hozirlaydi.

Eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlarni bilish ularda vatanimiz va halqimiz o'tmishini yaxshiroq o'rganish, so'z boyligini oshirish, sinonimiya (yuz, oraz, ruxsor kabi) hodisasidan kengroq foydalanish imkonini beradi.

Shevaga xos so'zlarni bilish adabiy til me'yorlariga amal qilishda tilimizning boy imkoniyatlarini ko'rsatib berishda muhim ahamiyatga ega.

Kasb – hunarga oid so'zlar bilan tanishib borish o'quvchilarning so'z boyligini oshiradi, ularni kasbga yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi.

Ruscha – baynalminal so'zlardan xabardor bo'lish va ma'nosini tushunish o'quvchi ongida yangi tushuncha va tasavvurini, ob'ektiv borliq haqidagi bilimlarini kengaytiradi.

Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilning lug'at tarkibini o'rgatib borish ularning so'z boyligini oshiradi, nutq madaniyatini yuksaltiradi, milliy tilimizning buyuk qudratini, sehri va jozibasini to'la xis etgan insonlar bo'lib etishishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. — T.: „O'zbekiston", 2000.
2. Karimov I. A. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: „Sharq", 1997.
3. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. — T.: „Ma'naviyat", 2008.
4. O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T.: „Sharq", 1997.
5. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T.: „Sharq", 1997.
6. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi davlat ta'lim standarti // „Boshl. ta'lim". jurnali. - Toshkent, 2005. - № 5.
7. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi o'quv dasturi // „Boshl. ta'lim". jurnali. - Toshkent, 2005. - № 5.
8. Uzviylashtirilgan Davlat Ta'lim standarti va o'quv dasturi. —Toshkent, 2010.
9. Ashrapova T., Odilova M. Ona tili o'qitish metodikasi. —Toshkent, 1982.
10. Yo'ldoshev J. G', Usmonov S. A Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: „O'qituvchi", 2004.
11. Ikromova R, G'ulomova X, Yo'ldosheva Sh, Shodmonqulova D. Ona tili (4-sinf uchun darslik). - T.: „O'qituvchi", 2007.
12. Matchonov S, Shojalilov A, G'ulomova X, Sariyev Sh, Dolimov Z. O'qish kitobi (4-sinf uchun darslik). — T.: „Yangiyul poligraph service", 2007.
13. Matchonov S va boshq. 4-sinfda o'qish darslari. — T.: „Yangiyul poligraph service", 2007.

14. Matchonov S va boshq. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini peda-gogik texnologiyalar asosida tashkil etish. — T.: „Yangiyul poligraph service'1, 2008.
15. Matchonov S, G'ulomova X. Hikoya qanday o'ttiadix //„Boshl. ta'l". jurnali. - Toshkent, 2004. - № 6.
16. Qosimova K. Boshlang'ich sinqlarda ona tili o'qitish metodikasi. — Toshkent, 1985.
17. Qosimova K. Ona tili o'qitish metodikasi. — Toshkent, 2009.
18. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli / A. Madvaliev tahriri ostida. — Toshkent: O'zb. mil. ens., 2006-2008.
19. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. — T.: „O'qituvchi", 1992.

MUNDARIJA

1. Ishning umumiy tavsifi.....	5
2. Kirish.....	5
3. O'qish darsining turlari hamda maqsad va vazifalari.....	8
4. O'quvchilarga tilning lug'at tarkibini o'rgatishda lug'at ustida ishlash yo'llari.....	15
5. 4-sinf o'qish darslari va darsligining umumiy tavsifi.....	22
6. Kasb-hunarga oid so'zlar va ularni o'rgatish.....	27
7. Shevaga xos so'zlar va ular ustida ishlash.....	33
8. Eskirgan so'zlar va ular haqida ma'lumot berish.....	36
9. O'qish darslarida ruscha - baynalminal so'zlarni o'rgatish yo'llari.....	42
10. Xulosa.....	45
11. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	46